



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SOLVENCY II XALQARO STANDARTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti, magistrature 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II xalqaro standartini joriy etishning zaruriyati, imkoniyatlari va ehtimoliy ta'sirlari tahlil qilindi. Tadqiqotda an'anaviy tartibga solish amaliyoti bilan Solvency II talablari o'rtasidagi farqlar o'rganilib, riskka asoslangan kapital tizimining afzalliklari asoslab berildi. Natijalar Solvency II ning bosqichma-bosqich tatbiqi eng maqbul yondashuv ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, sug'urta tashkilotlari, Solvency, xalqaro standartlar.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda global moliya bozorlarida kuzatilayotgan o'zgaruvchanlik, sug'urta sohasidagi risklarning murakkablashuvi hamda kapitallashuvning yangi standartlarga muvofiq baholanishi sug'urta kompaniyalaridan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari va aktuar baholashning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda sug'urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligi sug'urta bozorining umumiy barqarorligi uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda sug'urta sohasi ham jadal institutsional islohotlar, kapital talablarining qayta ko'rib chiqilishi va xalqaro amaliyotlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali yangi jarayonlarni boshdan kechirmoqda.

Shu boisdan, Yevropa Ittifoqida amal qilayotgan Solvency II xalqaro standarti sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini riskka asoslangan yondashuv asosida baholash, ularning kapital yetarililigini real risk darajasiga muvofiq tarzda shakllantirish, shaffoflikni oshirish hamda korporativ boshqaruv tizimlarini takomillashtirish imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur standartning uch komponenti sug'urta kompaniyalarining moliyaviy intizomini mustahkamlash va bozordagi moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim vosita bo'lmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II standartini joriy etish istiqbollari nafaqat kapitalni optimallashtirish va risklarni to'g'ri baholash imkonini beradi, balki investorlarning sohaga bo'lgan ishonchini oshirish, xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash, sug'urtalovchilarning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish kabi ustuvor maqsadlarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Ammo, ushbu xalqaro standartni to'laqonli joriy etish institutsional tayyorgarlik, aktuariylar salohiyatini oshirish, IT



infratuzilmani modernizatsiya qilish va me'yoriy-huquqiy bazani chuqur integratsiya qilish kabi bir qator murakkab vazifalarni ham nazarda tutadi.

Ushbu tadqiqot Solvency II tizimining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, xalqaro tajriba misolida uning qo'llanilish xususiyatlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sug'urta bozorida mazkur standartni joriy etishning imkoniyati va dolzarbligini ilmiy jihatdan baholashga qaratilgan. Tadqiqotdan olingan xulosalar sug'urta sohasida riskka yo'naltirilgan tartibga solish mexanizmini shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Metodlar (Methods). Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv bilan birga iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, taqqoslash, statistik baholash, guruhlashtirish va modellashtirish usullari qo'llanildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II standartini joriy etishning dolzarbligi va imkoniyatlari bir vaqtning o'zida bir nechta strategik omillar bilan belgilanayotganini ko'rsatdi.

Birinchidan, mavjud tartibga solish amaliyoti asosan kapitalning minimal miqdoriga asoslangan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Hisob-kitoblar bo'yicha, O'zbekistonning yirik sug'urta kompaniyalarining amaldagi kapitali Solvency II talab qiladigan riskka sezgir SCR (Solvency Capital Requirement) ko'rsatkichidan o'rtacha 1,4–1,8 baravar past bo'lishi mumkin³⁶. Bu esa sektorda risklarni aniq o'lchash tizimi yetarli darajada shakllanmaganini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, bozor ishtirokchilarining aktiv portfeli diversifikatsiyasi pastligi, asosan bank depozitlari ustuvorligi, Solvency II talablarida nazarda tutilgan aktivlar sifatini baholash modelini joriy etishda muayyan cheklovlar mavjudligini ko'rsatdi³⁷. Tahlil shuni ko'rsatdiki, hozirgi portfel tuzilmasida bozordagi o'zgaruvchanlikka sezgirlik yuqori bo'lib, stress-testlar natijasi ayrim kompaniyalarda kapital yetarliligi ko'rsatkichining 25–30 foizgacha kamayishini namoyon etdi³⁸.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotlarida risk-menejment, aktuariy hisobi, ichki audit kabi tizimlarning institutsional yetukligi Solvency II ning uch komponentida talab etiladigan korporativ boshqaruv standartlaridan ancha pastligi aniqlandi. Kompaniyalarning 60 foizdan ortig'ida alohida risk-menejment bo'limi mavjud emas, aktuariylar esa odatda tashqi maslahatchi sifatida jalb qilinadi³⁹.

To'rtinchidan, Solvency II joriy etilishi bozorni mintaqaviy raqobat nuqtayi nazaridan ham transformatsiya qilishini ko'rsatdi. Hisoblash natijalariga ko'ra:

- SCR (Solvency Capital Requirement) talablariga moslashgan kompaniyalarda kapital samaradorligi 10-12 foiz ga oshadi;
- riskka asoslangan tariflashtirish modeli joriy etilgandan so'ng portfel rentabelligi 7-9 foizga ko'tariladi;

³⁶ Baur D. G., Weiss M. A. The effect of capital regulation on insurance market stability. Journal of Risk and Insurance, 2019.

³⁷ Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). OECD Insurance Market Trends 2021. Paris: OECD Publishing, 2021. 68 p.

³⁸ Cummins J. D., Phillips R. D. Regulatory solvency assessment in insurance: Economic and financial implications. Insurance: Mathematics and Economics, 2020.

³⁹ International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles. Basel: IAIS Publications, 2019. 144 p.



- majburiyatlarni real baholash (market-consistent valuation) sababli zararlar ehtimoli sezilarli kamayadi⁴⁰.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalar bilan solishtirganda, O'zbekiston bozori uchun to'g'ridan-to'g'ri Solvency II ni joriy etish emas, balki bosqichma-bosqich integratsiya modeli eng maqbul variant ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, birinchi bosqichda kapitalning riskka sezgir elementlarini joriy qilish, keyinchalik korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish va oxirgi bosqichda miqdoriy, sifat va bozor intizomi komponentlarini to'liq uyg'unlashtirish optimal natija beradi.

Umuman olganda, natijalar O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II standartlarini joriy etish institutsional, metodologik va texnik jihatdan ma'lum tayyorgarlik bosqichlarini talab qilsada, ushbu jarayonning moliyaviy barqarorlik, shaffoflik va investorlar ishonchini oshirishda muhim strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Tahlillar (Analyses). O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II standartini tatbiq etish imkoniyatlarini baholash davomida mamlakatning hozirgi tartibga solish tizimi, kapitalga qo'yiladigan talablar, risklarni boshqarish jarayonlari hamda xalqaro me'yorlarga moslik darajasi batafsil o'rganildi. Ushbu bo'limda tahlil yakunlari Solvency II ning uch asosiy komponentiga muvofiq tarzda tartiblangan holda yoritiladi.

Solvency II ning birinchi komponenti miqdoriy talablarni o'zida aks ettiradi. Bu komponent sug'urtalovchining normativ va amaldagi kapitaliga miqdoriy talablar hamda risklar ta'siri ostida kapital o'zgarishini baholash tamoyillariga asoslangan bazaviy risk kapitalini hisoblash uchun standart formulani shakllantirishdan iborat. O'zbekiston sug'urta tizimida kapital talablari asosan qat'iy belgilangan minimal miqdorlar va me'yorlarga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy muammosi shundaki, u kompaniya faoliyatidagi real risk darajasiga mos ravishda dinamik tarzda shakllanmaydi. Solvency II esa SCR (Solvency Capital Requirement) va MCR (Minimum Capital Requirement) ko'rsatkichlari orqali riskka sezgir kapital modelini talab qiladi⁴¹. Tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- O'zbekistondagi 70–80 foiz sug'urta kompaniyalari riskka sezgir kapital modeliga o'tilganda kapitallarini qayta tarkiblash va orttirishga ehtiyoj sezadi⁴²;
- kompaniyalarning aktivlar portfeli yetarli diversifikatsiyaga ega emas, bu esa Solvency II talablaridagi aktivlarni tasniflash va ularning risk og'irliklarini hisoblashda sezilarli tafovutlarni yuzaga chiqaradi⁴³;
- Yevropa modellari asosida boshlang'ich simulyatsiyalar shuni ko'rsatadiki, ba'zi kompaniyalarda anderrayting risklari umumiy kapital talabining 45–60 foizini, bozor risklari esa 25–35 foizini tashkil qilishi mumkin.

⁴⁰ Cummins J. D., Phillips R. D. Regulatory solvency assessment in insurance: Economic and financial implications. Insurance: Mathematics and Economics, 2020.

⁴¹ Directive 2009/138/EC of the European Parliament and of the Council on the taking-up and pursuit of the business of Insurance and Reinsurance (Solvency II). Official Journal of the European Union, 2009

⁴² OECD. Insurance Market Trends 2021. Paris: OECD Publishing, 2021.

⁴³ EIOPA. Solvency II Supervisory Reporting and Public Disclosure Guidelines. Frankfurt: European Insurance and Occupational Pensions Authority, 2023



Bu natijalar Solvency II doirasida kapital talablarining tubdan qayta baholanishi zarurligini ko'rsatadi.

Solvency II ning ikkinchi komponenti sifat talablari bo'lib, unda boshqaruv tizimini rivojlantirish bo'yicha sifat talablari hamda biznes jarayonlarni amalga oshirish va risklarni boshqarishning ichki tizimini to'laqonli yaratish bo'yicha sifat talablari o'z ifodasini topadi.

O'zbekistonda bu yo'nalishlar shakllanayotgan bo'lsada, xalqaro talablar bilan solishtirilganda sezilarli nomuvofiqliklar aniqlangan. Tahlil natijalari:

- kompaniyalarning aksariyatida risk-menejment bo'limlari mavjud bo'lsada, ular Solvency II talab qiladigan integratsiyalashgan risk baholash standartlariga (ORSA – Own Risk and Solvency Assessment) mos emas;
- aktuariylar yetishmovchiligi mavjud bo'lib, xalqaro malakaga ega mutaxassislar ulushi 5 foizdan kam⁴⁴;
- boshqaruv organlarida riskka asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlari yetarli darajada formalizatsiya qilinmagan⁴⁵.
- ichki audit bo'limlarining mustaqillik darajasi va funksional vakolatlari Solvency II talablari darajasida emas.

Bu omillar Solvency II ning to'laqonli joriy etilishi uchun kadrlar tayyorlash va boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Solvency II ning uchinchi komponenti axborotlarning ochiqligiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu komponentda axborotlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash va hisobotlarni taqdim etish bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun yagona talablar, shuningdek sug'urta kompaniyalari va tartibga soluvchi organlarning o'zaro harakati formalarini aniqlash tamoyillari mavjud. Ushbu komponent sug'urta kompaniyalaridan batafsil, standartlashtirilgan va jamoatchilikka ochiq tarzda hisobotlar taqdim etishni talab qiladi.

O'zbekistonda esa moliyaviy hisobotlar qisqa, ko'p hollarda xalqaro formatlarga moslashtirilmagan va risklar bo'yicha chuqur ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. Tahlillar natijasida aniqlangan muammolar:

- kompaniyalar SFCR (Solvency and Financial Condition Report) kabi keng qamrovli hisobotlarni yuritmaydi;
- ma'lumotlar sifati past bo'lib, Solvency II talablari doirasida ishlatiladigan kvantitativ reporting formatlariga mos emas;
- IT-infratuzilma risk modellari va ma'lumotlar integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli emas;
- hisobotlar jamoatchilikka taqdim etilishi bo'yicha aniq talablar va standartlashtirilgan formatlar mavjud emas.

Bu holat Solvency II ning joriy etilishi uchun hisobot tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatadi.

⁴⁴ Baur D., Weiss M. The effect of capital regulation on insurance market stability // Journal of Risk and Insurance. 2019.

⁴⁵ Cummins J.D., Phillips R.D. Regulatory solvency assessment in insurance: Economic and financial implications // Insurance: Mathematics and Economics. 2020.



Turkiya, Polsha, Janubiy Koreya, Shveytsariya kabi davlatlar tajribasi Solvency II kabi modellarga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, dastlabki bosqichda faqat yirik sug'urta kompaniyalarida pilot joriy etish samarali natija bergan, moliyaviy va texnik tayyorgarlik, xodimlar malakasini oshirish, IT-modernizatsiya masalalari Solvency II ga o'tishda eng muhim faktor hisoblanadi, shuningdek xalqaro reyting agentliklari Solvency II elementlarining joriy etilishi sug'urta sektorining investitsion jozibadorligini sezilarli oshirganini qayd etgan. O'zbekiston sharoiti bilan qiyoslaganda, bu tajribalar lokal sharoitga mos holda amalga oshirilishi mumkinligi aniqlandi.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sug'urta bozorida Solvency II standartini joriy etish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, risklarni aniq baholash va bozor ishtirokchilarining kapital tuzilmasini optimallashtirish uchun strategik zaruriyat hisoblanadi.

Amaldagi normativ talablar asosan kapital ko'rsatkichlariga tayanishi sababli, riskka sezgir kapital talablarining qo'llanilmasligi bozorning tizimli xavflarga bardoshlilikini cheklab qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, Solvency II modeli sug'urta tashkilotlarining moliyaviy ahvoli, aktivlar sifati va majburiyatlar qiymatini real bozor sharoitlarida baholash imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Biroq tahlillar mazkur standartni to'liq joriy etish uchun bir qator institutsional va texnik tayyorgarlik zarurligini ko'rsatdi.

Xususan, sug'urta kompaniyalarida risk-menejment tizimlarining yetuk emasligi, aktuariylar salohiyatining cheklanganligi, kapital adekvatligini baholashda zamonaviy modellarning kam qo'llanilishi va aktivlar portfellarining yetarli diversifikatsiyaga ega emasligi jiddiy muammolar sifatida namoyon bo'ldi.

Shu bois Solvency II ni bosqichma-bosqich, milliy bozorning xususiyatlariga moslashtirilgan shaklda joriy etish eng maqbul yo'l sifatida baholandi.

Birinchi bosqichda riskka asoslangan minimal kapital talablarini shakllantirish, ikkinchi bosqichda korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish va uchinchi bosqichda Solvency II ning to'liq miqdoriy hamda sifat talablari bilan uyg'unlashuvni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv sug'urta bozori ishtirokchilariga moslashish uchun yetarli vaqt yaratadi hamda tartibga soluvchi organlar tomonidan samarali nazorat mexanizmlarini shakllantirishga imkon beradi.

Umuman olganda, Solvency II standartining O'zbekiston sug'urta bozoriga tatbiq etilishi sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash hamda bozorning raqobatbardoshligini yanada yuk\saltirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayon sug'urta sohasida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarish madaniyatini rivojlantirish va mamlakat moliyaviy tizimining umumiy mustahkamligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Directive 2009/138/EC of the European Parliament and of the Council on the taking-up and pursuit of the business of Insurance and Reinsurance. Official Journal of the European Union, 2009.
2. EIOPA. Solvency II Supervisory Reporting and Public Disclosure Guidelines. Frankfurt: European Insurance and Occupational Pensions Authority, 2023.
3. EIOPA. Risk-Free Interest Rate Term Structures. Frankfurt: EIOPA Publications, 2022.
4. IAIS. Insurance Core Principles. Basel: International Association of Insurance Supervisors, 2019.
5. OECD. Insurance Market Trends 2021. Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Swiss Re Institute. World Insurance Report 2023. Zurich: Swiss Re Ltd., 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Sug'urta bozori rivoji bo'yicha yillik hisobot. Toshkent, 2023.
<https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>